

FRAZELOGIZM VA PAREMALAR HAMDA ANTROPONIMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nigora Raxmatullayeva

University of Business and Science

Nodavlat oily ta'lim muassasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734464>

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi barqaror birikmalar ularning turlari semantik strukturasi component tahlil qilinadi. Frazemalar, maqol, matallarning milliy-madaniy bo'yoqdorlik masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: leksema, semantik struktura, frazema, frazeologik birikma, paremalar.

Абстрактный:

В статье анализируются устойчивые соединения в узбекском языке, их типы, семантическая структура и компоненты. Обсуждается вопрос национально-культурной окраски идиом, пословиц и поговорок.

Ключевые слова: лексема, семантическая структура, фразема, фразеологическое сочетание, паремы.

Abstract:

This article analyzes the types of stable compounds in the Uzbek language, their semantic structure, components. The issue of the national-cultural coloring of phraseology, proverbs, sayings is highlighted.

Keywords: lexeme, semantic structure, phraseology, phraseological combination, paremas.

Ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari **barqaror birikmalar** deyiladi.

Barqaror birikmalar sirasiga frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar kiritiladi. Ulr ham milliy mohiyatga ega lingvomadaniy birliklardir.

Ikki va undan ortiq so'zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi odatda bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiritiluvchi, ko'chma ma'noli barqaror (turg'un) birikma **ibora** yoki **frazeologizm** deyiladi. Masalan, 1. *U ilonning yog'ni yalagan odam.* 2. *Biz-ning orzularimiz ko'p edi, ammo peshonamizga yozilgani shu bo'ldi.* 3. *Ikkala do'st gapni bir joyga qo'yib ish boshlashdi.* Bu gaplarda ilonning yog'ini yalagan (*mug'ombir*), peshonamizga yozilgani (*taqdir, qismat*), gapni bir joyga qo'ymoq (*ahdlashmoq, kelishmoq*) frazeologizmlari qo'llangan.

Frazeologizmlar tilshunoslikda **frazema, frazeologik birikma, ibora** deb ham ataladi.¹

O'zbek tilida to'y uzvli frazeologizmlar ham mavjud: *to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq, to'ydan oldin nog'ora chalmoq* kabi.

To'ydan ilgari nog'ora qoqmoq frazeologizmi "ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirib yurmoq" ma'nosini anglatadi/ Mazkur ibora *to'ydan oldin nog'ora chalmoq* variantida ham qo'llanadi. Masalan, **To'ydan ilgari nog'ora chalma**, xotin, hali o'g'ling uylanadigan bo'lgani yo'q. Avval o'qishini bitirsin, ishi tayin bo'lsin. (P.Qodirov. Uch ildiz)

¹Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019. – B.118.

To'ydan ilgari nog'ora qoqmoq frazeologizmi gap odadan oldin chang ko'tarmoq frazeologik birligi sinonim bo'ladi.

Maqol va matallar ham lingvomadaniy birliklardir. Maqol, matal va aforizmlar **paremalar** deb ham yuritiladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikmalar **maqol** sanaladi.² O'zbek tilida to'y uzuvli va to'y konsepti bilan bog'liq maqol va matallar ham mavjud. To'y etnografizmi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

O'zbek lingvomadaniyatida to'y marosimi shunchalar chuqur o'rin olganki, bu xalq og'zaki ijodida ham yorqin kuzatiladi. O'zbek tilida to'y qo'shiqlari, ya'ni laparlar, yor-yor bilan bir qatorda paremalar ham yaratilgan.

"To'ydan oldin nog'ora qoqma", "To'yga borsang, to'yib bor", "To'yga borsang, to'yib bor, To'rqa to'ning kiyib bor", "To'y oshi – to'polon oshi", "To'yning boshi – boshlanguncha", "Qo'y semizi – qo'ychidan, To'y tamizi – to'ychidan", "To'y kimniki – tegishliniki", "To'y – Xudoning xazinasi", "To'y ustiga to'y bo'lsin, Balo-qazo yo'q bo'lsin" kabi.³ Bu maqollar va ularning variantlarida o'zbek xalqiga xos to'y bilan bog'liq ezgu an'analar, urf-odatlar, xususan, yaqinlarga, qarindoshlarga duo qilib to'y qilishni tilash, to'yning ezgulik, to'kinlik, tinchlik, hamjihatlik, yaqinlik, o'yin-kulgu, xursandchilik, mehmondo'stlik ramzi sifatida talqin qilinishi ularning haqiqiy lingvomadaniy birlik ekanligidan dalolat beradi.

To'y uzuvli paremalarning har biri alohida mazmunga ega, biroq ularning barchasida to'y bilan bog'liq masalalargina emas, sabr-toqat, saxovat, elga hurmat, himmat, nafsniitiyish, kamtarlik bilan axloq-odobga doir pand-u o'gitlar ham o'rin olgan.

"To'yga borsang, to'yib bor, yomonliging qo'yib bor" maqoli *"Jamoat yig'iladigan joylariga, jumladan to'yga, mehmondorchilikka "alaqay-shalaqay" bo'lib borma, durustroq kiyimingni kiyib bor: jamoat yig'ilgan joyda yomonlik qilma, nihoyatda odob saqla, to'y-ziyofatda ovqatni ochko'zlardek orqa-o'nginga qaramay yema"* deb nasihat qilganda aytiladi.⁴ *"To'yga borsang, to'yib bor, To'rqa to'ning kiyib bor"* maqoli ham xuddi shu mazmunga ega. Maqoldagi dialectal to'rqaso'zi to'n, ya'ni shoyi matodan tikilgan to'n ma'nosida qo'llangan.

"To'yga borsang, to'yib bor, Bo'z xaltangni qo'yib bor", "To'y oshi – to'polon oshi" maqollarida esa *"to'y oshi va boshqa pishiriqlar ko'pchilikka mo'ljallangan. Mehmonlar ko'payib ketsa, kamroq suzilishi, nimadir yetishmay qolishi mumkin, bundan gina qilma, o'pkalama, xafa bo'lma/ Totib ko'rsang ham to'ygandek bo'lasan"* deyiladi.

Xalqimizning *"To'yga borsang, burun bor, Burunborsang, o'rinbor"* maqolida *"Chaqirilgan joyga, yig'inga aytilgan vaqtda kechikmasdan yoki sal ertaroq bor, juda erta yoki kech borib to'y egasini xijolatga qo'yma"* degan g'oya ilgari suriladi.

"To'yda so'z ber baxshiga, Xaridor bo'l yaxshiga" maqolida esa *"to'y va boshqa yig'inlarda gapirishi lozim bo'lgan kishilarga so'z ber, yoshi kata nuroniy otaxon va onaxonlarning pand-u o'gitlarini eshit, tingla, kamroq gapir, yaxshilarga ergash, ularning ibratli fazilat hamda xislatlarini o'rgan, tarbiya, saboqol"* degan ibratli hayotsabog'iberiladi.

"To'yning boshi – boshlanguncha", "Qo'y semizi – qo'ychidan, To'y tamizi – to'ychidan", "To'y kimniki – tegishliniki", "To'y – Xudoning xazinasi", "To'y ustiga to'y bo'lsin, Balo-qazo yo'q bo'lsin"

²Uluqov N. O'shaqo'llanma, 118-b.

³Qarang. Шомақсудов Ш., Шораҳимов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б.344-345.

⁴Qarang. Шомақсудов Ш., Шораҳимов Ш. Ўша асар, 344-б.

kabi maqollarda to'y ezgu, muqaddas udum, marosim ekanligi, u boshlansa, albatta, qarindosh-urug', yor-u birodar, qo'ni-qo'shni qaram turmasligi va ularning yotdami, ko'magi bilan o'tib ketishi aytiladi hamda to'y bahonasida balo-qazolarni daf bo'lishini istab duo qilinadi.

O'zbek tilida to'y marosimi bilan bog'liq antroponimlar ham yuzaga kelgan.

Qarindosh-urug'lar, xususan, farzandning ota-onasining amma-xolasi, tog'asi, aka-uka, opa-singillar yoki boshqa yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar to'yi arafasida va aynan to'yi kuni tug'ilgan farzandlarga yaxshi, ezgu niyatlar bilan *To'ybegim, To'ybek, To'ybeka, To'yberdi, To'ybibi, To'ybobo, To'yoy, To'ybuvi, To'ybo'ldi, To'ygul, To'yjon* (*to'ykunitug'ilgan, jondekaziz, suyukli bola*), *To'yzoda* (*to'yqizi, to'ykunitug'ilganqiz*), *To'ykeldi* (*to'ykunidunyogakelgan bola*), *To'yko'rar* (*ulg'ayib, to'ylar ko'rsin yoki to'y kuni tug'ilgan bola*), *To'yli // To'yliboy* (*to'y kuni tug'ilgan bola yoki sog' ulg'ayib to'ylar ko'rsin*), *To'y maqsad* (*to'y kuni erishilga norzu, masad*), *Toymirza* (*to'y kuni tug'ilgan o'g'li mirzalardek kelishimli, o'qishimli yigit bo'lsin*), *To'ymurod* (*to'y kuni erishilgan orzu, masad yoki to'y kuni tug'ilgan o'g'il ulg'ayib murodu maqsadiga yetsin*), *To'ymuhammad* (*(to'y kuni tug'ilgan bolani Muhammad (sav) panohida asrasin)*), *To'ynazar, To'yniyoz, To'ypo'lat, To'ysuluv, To'ytemir, To'ytirak, To'yturdi, To'yxon, To'yxo'ja, To'ychi, To'ychiniso, To'ychiqul, To'yqiz, To'yqul* va boshqa 40 dan ziyodi smlar ko'pu chraydi.⁵

Tahlillardan ko'rinadiki, o'zbek xalqiga xos to'y uzuvli va u bilan bog'liq maqollar hamda kishi ismlarida xalqimizga xos bolajonlik, mehmondo'stlik, elparvarlik, saxovatpeshalik va halollikka chorlov kuzatiladi. Mazkur maqollar ana shunday o'zbek xalqiga xos urf-odatlar, marosimlar bilan bog'liq axloq-odob qoidalarni, yashash tarzini, lisoniy-madaniy axborotlarni ifodalashi lingvomadaniy mohiyat kasb etadi. Yuqoridagi maqollar bugungi kunda ham o'z mazmun-mohiyatini yo'qotmagan. Ularda qatidagi ibratli pand-u o'gitlar ayanan bugungi yoshlarga mehmondorchilik, jamoat joylarida yurish-turish, ommaviy-madaniy, rasmiy tadbirlarga qatnashish odobidan saboq beradi va bu asrlar davomida bardavom etadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019. – B.118.
2. Uluqov N. O'shaqo'llanma, 118-b.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳимов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент:
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.–Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – 1-ж.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳимов Ш. Ўша асар, 344-б.
6. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – Б.432-434.

⁵Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – Б.432-434.